

“E-MA’MURIY ISH”– TIZIMI BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLI**Otajonov Rajabboy**

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi

Akademik litseyi direktori, podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10722087>

O‘zbekistonda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida davlat boshqaruvi organlari va boshqa barcha tarmoq sohalari tizimda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, vazirlik va idoralarning axborot tizimlari o‘zaro integratsiyalashuvi, uning uzluksiz ishlashi, axborot xavfsizligi ta‘minlanishi, raqamlashtirish orqali xalqimizga qulayliklar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. “Ish yuritish” tushunchasiga izoh beradigan bo‘lsak, ushbu atama turli idoralar, muassasalarda hujjatlar aylanishini ta‘minlash (majlislarning stenogrammalari va bayonnomalarining, qabul qilingan qarorlar va buyruqlarning nusxalarini ko‘paytirish va saqlash; xat-xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatga olish, xat-xabarlarni jo‘natish va h.k.) bilan bog‘liq faoliyat turi hisoblanadi[1].

“Ish yuritish” degan atama ruscha “deloproizvodstvo” suzidan tarjima qilinib, tilimizga olib kirilgan. Vaholanki, ma‘lum bo‘lishicha, tariximizda saroy va umuman yirik mahkamalarda yozuv ishlarini olib boruvchilar “munshiy” (arabcha) deyilgan. Atoqli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi quyidagi satrlarni eslang: “Anvar devonxona sahniga yetganda, ichkaridagi kattadan-kichik, mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini muborakbod qilgani o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar”. Demak, ruschadan tarjima qilingan “ish yurituvchi” atamasining muqobili sifatida “munshiy” so‘ziga o‘zakdosh va ma‘nodosh bo‘lgan hamda o‘tmishda bobolarimiz tilida ishlatilgan “munshaot” so‘zini tavsiya etish mumkinligi keltirilgan[2].

Ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta‘minlash, ish bo‘yicha yuritilayotgan hujjatlarning o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishining samarali mexanizmlarini joriy etish, aholining ichki ishlar organlariga ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida, ma‘muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha ish yuritishni tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar yangidan qabul qilindi. Ana shu hujjatlar tizimida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyulda qabul qilingan “Ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning elektron tizimini joriy etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 431-son qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur qaror bilan ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni

yuritishning elektron tizimini tartibga soluvchi eng muhim normalar belgilandi. Ushbu qaror bilan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimi orqali ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni yuritish tartibi haqidagi nizom ishlab chiqilib, unda:

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish hamda ularni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlariga elektron shaklda yuborish tartibi;

huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, guvoh va xolilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tahlil qilish qoidalari;

vakolatli organlar o'rtasida idoralararo axborot almashishning yagona markazlashtirilgan elektron tizimini yuritish tartibi;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni vakolatli organlar tomonidan joyida planshet va kompyuter yordamida rasmiylashtirish tartibi;

ma'muriy bayonnoma va ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorni elektron shaklda rasmiylashtirish qoidalari aks ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida yagona elektron ish yurituv tizimini tashkil etish, uning sifatli va uzluksiz faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, shuningdek, ma'muriy bayonnoma tuzishda, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda vakolatli davlat organlarining tizimdan samarali foydalanishlarini ta'minlash bo'yicha mas'ul organi etib belgilandi. Ma'muriy ishlarni elektron shaklda yuritish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan shakllantiriladigan «E-ma'muriy ish» tizimi orqali amalga oshirilib, ushbu tizim faoliyatini yuritish hamda muhofaza qilish vazirlikning zimmasida hisoblanadi. «E-ma'muriy ish» tizimi — bu, huquqbuzarlik sodir etilgan holat yuzasidan ma'muriy ish hujjatlarini elektron tarzda rasmiylashtirish va shakllantirish, vakolatli organga elektron yuborish hamda huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, jabrlanuvchi, guvoh va xolilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, saqlash, tahlil qilish, shuningdek, vakolatli organlar o'rtasida idoralararo axborot almashishning yagona markazlashtirilgan elektron tizimidir.

Hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizda Ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy raqamli va axborot texnologiyalarini keng joriy etishni talab etmoqda.

Bunda profilaktika inspektorlarining ish hajmini kamaytirish, ularning vaqtlarini tejash va ortiqcha sarf-xarajatlarni oldini olish hamda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar osoyishtaligini ta'minlashda o'z samarasini beradi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-iyundagi 407-son Qarori ijrosi yuzasidan, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi yagona elektron ish yurituv doirasidagi **"E-ma'muriy ish" tizimi** yaratildi.

Ushbu tizimga barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolati bo'lgan 50 dan ortiq organlar hamda **"Elektron hukumat"**ning **"Yagona billing"** tizimiga bog'landi.

Tizim, Oliy sudning "E-XSUD" va Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining "MIB portal" axborot tizimlari bilan integratsiya qilindi.

2021-yilning 26-aprelda test sinovlari yakunlanib, tizim respublikaning barcha hududlarida to'liq ishga tushirildi.

Axborot tizimida qo'yidagi imkoniyatlar yaratildi:

- ma'muriy bayonnomalarga avtomatik tarzda takrorlanmaydigan yagona raqamlar berilishi yo'lga qo'yildi. *(bayonnomalarni elektron bazaga to'liq kiritilishi nazoratga olinib, korrupsion holatlarning oldi olindi)*

- ma'muriy bayonnomani rasmiylashtirishda, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning shaxsini aniqlash *(shaxsni tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lmaganda)* uchun identifikatsiya *(yuz va barmoq izi)* qilish imkoniyati yaratildi;

- ma'muriy ish holati yuzasidan huquqbuzarning e'tirozi bo'lmagan taqdirda, shu joyning o'zida soddalashtirilgan tartibda chora ko'rish mexanizmi ishga tushirildi;

- "E-ma'muriy ish" tizimi orqali fuqarolarga SMS yoki "O'zbekiston pochta" AJ orqali yashash manziliga xabar yuborilishini integratsiya qilish bo'yicha servis yaratildi;

- Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIBB, Samarqand, Namangan, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyat IIBlari barcha profilaktika inspektorlari planshet qurilmasi bilan to'liq ta'minlanib, ma'muriy bayonnomalar **"E-ma'muriy ish"**- tizimi orqali yuritilishi hamda **"IBD-O'zbekiston"** axborot tizimidan foydalanish yo'lga qo'yildi.

- protsessual hujjatlarni elektron tartibda yuritish orqali **sarf xarajatlarni keskin kamayishiga erishildi.**

Shuningdek, chiqarilgan bayonnomalar, ma'muriy ishning yuritilishi va qabul qilingan qarorlarning ijro holati to'g'risida fuqarolarni xabardor qilish uchun mobil ilovasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2021-yil 12-fevral kuni Ichki ishlar vazirligi hay'atining kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishining 8-sonli bayonida Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari tomonidan



rasmiylashtirilgan hujjatlar yuzasidan ma'muriy ishlar bo'yicha sud majlislarini **"masofaviy"** (*onlayn*) shaklda o'tkazilishini ta'minlash vazifasi belgilangan.

Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Oliy sud bilan elektron hamkorlikni yo'lga qo'yish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan, video-konferens-aloqa tizimini to'liq ishga tushirish, hududlarning infratuzilmasini yaratish (*optik tolali aloqa, kabel va boshqa*) maqsadida, Oliy sud, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish va Ichki ishlar vazirligi tomonidan 2021-yil 11-fevralda **"Yo'l xaritasi"** ishlab chiqildi.

- ichki ishlar organlari tayanch punktlarida mavjud kompyuterlariga **"TE Mobile"** video-konferens-aloqa dasturi o'rnatildi.

- dasturdan profilaktika inspektorlari foydalanishlari uchun uslubiy qo'llanma yaratilib, o'quv-mashg'ulotlari o'tkazildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangibayev A. Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni elektron shaklda yuritish tushunchasi va huquqiy asoslari //Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh nauk. – 2022. – T. 2. – №. 10 Special Issue. – S. 123-127.
2. M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov. Ish yuritish. Amaliy qo'llanma 2- nashri. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashri, 2000, 2003 – T. – B.14 (B.446)
3. Qushboqov S., Tilabov S. Axborot xavfsizligi hamda muhofazasi ta'minlashda huquqbuzarlik profilaktikasining roli //Science and innovation in the education system. – 2023. – T. 2. – №. 11. – C. 45-47.
4. Qushboqov S., Mamatova D. Yangi O'zbekistonda huquqbuzarlik profilaktikasining o'rni //current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 37-39. Page 53
5. Қушбоқов Ш., Ҳосилжонов М. Оилавий (маиший) зўравонлик ҳуқуқбузарлигини малакалашдаги муаммолар //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 29-31.
6. Шермухамедов А.А., ўғли Холдаров Ф.Э. Методика расчета интенсивности износа и пробега шин специализированных транспортных средств //research and education. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 231-247.
7. Охунов З., Қушбоқов Ш Т. Т. С. Э. Ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – T. 2. – №. 11. – C. 34-39.
8. Вахобжонов Д. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи органлар ва муассасаларнинг ҳамкорлиги ташкилий-ҳуқуқий

- асослари //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 117-125.
9. Qushboqov S., Zamonov X. Shaxsning hayoti va sogligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishning oziga xos xususiyatlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 79-84.
10. Вахобжонов Д. Ички ишлар органлари ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмаларининг фаолияти самарадорлигига салбий таъсир этувчи омиллар таҳлили //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 142-150.
11. Қушбоқов Ш., Самадов М. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширувчи ички ишлар органлари томонидан маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни юритишда мавжуд муаммолар ва уларнинг ечими //Solution of social problems in management and economy. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 95-98. 16.
12. Вахобжонов Д. Профилактика инспекторининг шахс ҳаёти ва соғлиғига қарши жиноятлар профилактикасида халқаро тажриба ва қонунчилик //Бюллетень студентов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 27-35.
13. Қушбоқов Ш., Самадов М. Ички ишлар органлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни ўрни //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 73-76.

